



JAMOAT SALOMATLIGI

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

28-
fevral
2022 yil
Dushanba

№1-2 (6)

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

INSTITUTIMIZ 1 YOSHDA



Ortga bir nazar

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutiga "Institut" maqomi berilganiga endigina bir yil bo'ldi. Shunday bo'lsada institut respublikadagi oliy o'quv yurtlari, xususan, tibbiyot oliygohlari orasida o'z o'rnini va maqomiga erisha oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat yurtimizda, balki, o'rta osiyoda yagona hisoblangan ushbu oliy dargoh yosh bo'lishiga qaramay sezilarli darajada yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Xususan, institutda olib borilgan ilmiy faoliyat, talabalar va pedagoglar tomonidan erishilgan yutuqlar, shuningdek, xalqaro miqyosida o'tkazilgan ilmiy konferensiyalar, fan olimpiadalari, bir qator horijiy davlatlar tibbiyot universitetlari va klinik markazlari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari, qo'shma dastur va akademik almashinuvlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

— Institutni namunaviy, dunyoga mashhur dargohlardan biriga aylantirishga astoydil bel bog'ladim, — deydi institut rektori, tibbiyot fanlari doktori Akmal Sidikov. — Bugungi

kunda institut binolari infestitsiya dasturi asosida to'liq rekonstruksiya qilinmoqda. Loyiha instituti mutaxassislari va boshqa qurilish muhandislari bilan Fransiya va Rossiya davlatlarida ko'rgan, o'rgangan taassurotlarim asosida amalga oshirmoqdamiz. Ayrim loyiha chizmalarini o'zim ham chizib berdim. Agar haqiqatdan ham kuchimiz yetib, oxirigacha bu ishlarni bitirib olsak, keyingi o'quv yili boshlanishida ochilish marosimi qilamiz. Hammani taklif etamiz. O'shanda ko'rasiz, bu yurtimizdagi yagona institut bo'ladi, degan umiddamiz.

Batafsil 2-betda



OLYGOHNING TASHKIL ETILISHI TO'G'RISIDA 5 TA FAKT

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda tegishli qarori bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali negizida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tashkil etildi.
- 2 Qarorga muvofiq Farg'ona viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi institutning klinik bazasi etib belgilandi.
- 3 Institut O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga har yili belgilanadigan qabul davlat buyurtmasi parametrlari doirasida va qo'shimcha qabul parametrlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.
- 4 Institutda 2021-2022 o'quv yilidan boshlab bakalavriat yo'nalishlari, klinik ordinatura, magistratura yo'nalishlari, 2021 yildan esa tayanch doktorantura yo'nalishlari bo'yicha maqsadli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.
- 5 Institut Farg'ona viloyatidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi Xalq salomatligi texnikumlari va tibbiyot kollejarining aniq fanlar o'qituvchilariga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Jarayon

11 NAFAR XORIJLIK TALABA O'QISHGA QABUL QILINDI

Yangi o'quv yilida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti xalqaro fakultetiga yana 11 nafar xorijlik talaba o'qishga qabul qilindi.

Kecha institut faollar zalida yangi kelgan talabalarining «Qasamyod marosimi» bo'lib o'tdi. Unda talabalar o'z kasbiga sodiq qolish, bemorlar hayotiga daxl qilmaslik, tibbiyot sohasi rivojiga o'z hissasini qo'shish va aholiga beminnat xizmat ko'rsatish

yo'lida sadoqat bilan faoliyat olib borishga qasamyod qildilar.

Marosim so'ngida institut rektori Akmal Sidikov talabalarni tibbiyot oliygohiga o'qishga qabul qilinganliklari bilan samimiy tabrikladi. Talabalarga o'qish davomida omad va muvaffaqiyatlar tilash bilan birga kelgusida o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlariga tilakdosh bo'ldi.

M.DEHQONOVA



Marosim yakunida horijlik talabalar bo'lajak ustozlari bilan suratga tushdilar

INSTITUTIMIZ 1 YOSHDA

Ortga bir nazar



O'tgan bir yil davomida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Rossiya Federatsiyasining KURSK va KUBAN tibbiyot universitetlari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturi tuzildi. Bundan tashqari Belorussiya, Germaniya, Hindiston tibbiyot oliygohlari, Moskva anesteziologiya va reanimatologiya klinik markazi bilan memorandum imzolandi. Tibbiyot mutaxassislari hamda talabalarni malaka oshirishida bevosita hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Davomi. Boshi 1-betda

O'quv mashg'ulotlari olib boriladigan binolar va talabalar turar joylari, Vivariy o'quv va ilmiy laboratoriyalar bitta hududda joylashgan kampus shaklida qurilmoqda. Bu ishlar viloyatimiz hokimligi tashabbuslari bilan bo'layotganligini sizga eslatib o'tmoqchiman.

Darhaqiqat, institut ta'xis etilganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa ham, nafaqat ilmiy faoliyat balki, boshqa jabhalarda ham ishlar jadal sur'atda olib borilmoqda. Hozirda institutning asosiy binosi to'liq qayta ta'mirdan chiqarilmoqda. Institut rektori Akmal Sidikov ta'kidlaganidek, yangi o'quv yilida talabalar o'qishni zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan o'quv xonalari va barcha sharoitlarga ega laboratoriyalarda boshlaydilar. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash bilan birga talabalarga tibbiyot sohasini chuqurroq o'zlashtirishiga ham ko'mak beradi.

Ayni kunda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 3 ta fakultet, 25 ta kafedra mavjud. Institutda 8 ta yo'nalishda o'quv jarayonlari olib boriladi. Undan tashqari xalq tabobati, oliy malakaviy hamshira ishi, tibbiy profilaktika, davolash ishi, pediatriya va stomatologiya hamda farmatsiya yo'nalishlari ham mavjud.

Oliyog'ohda talabalar soni 3000 dan ziyod. 140 dan ortig'i esa horijlik yoshlardir. Bugungi kunda institutda 10ga yaqin millat yoshlari tibbiyot sohasi bo'yicha tahsil olmoqda. Har birining kelib chiqishi, dini, tili, urf-odatlar va madaniyati turlicha. Dunyo qarashi bo'lak bo'lgan yoshlarning barini birgina sabab, bilim olish va o'z kelajagini, o'z taqdirini o'zi belgilash maqsadi birlashtirgan.

2021-yilda institut maqomi va nufuzini oshirish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, ta'lim sifati reytingini ko'tarish, pedagoglarning ilmiy tajribasi va talabalarning bilim salohiyatini yanada boyitish maqsadida chet davlatlarning nufuzli oliy ta'lim maskanlari bilan keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Shu jumladan, yaqinda institutimizning 30 nafar malakali mutaxassislari tajriba almashish va hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash maqsadida

Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida joylashgan Reabilitologiya va reanimatologiya ilmiy-klinik markazida o'quv seminar va tajriba almashish dasturlarida ishtirok etib qaytdilar.

Bundan tashqari, institutning o'zbek tili, horijiy tillar va pedagogika kafedrasida o'qituvchilari Germaniyaning Akkon Hochschule für Humanwissenschaften oliy maktabiga tashrif buyurishdi. Bundan asosiy maqsad O'zbek tili, horijiy tillar va pedagogika kafedrasida o'qituvchi M.Qodirova tomonidan ishlab chiqilgan «Tibbiy ta'lim pedagoglari uchun», «Tibbiyot pedagogikasi elektron metodik portalini yaratish» nomli amaliy loyiha doirasida yanada kengroq ishlash va horij tajribasini o'zlashtirish orqali samarali natijaga erishish bo'ldi.

Yana bir xalqaro hamkorlik yo'lida Qozog'iston davlatida xalqaro forum va seminarlar o'tkazib, o'z tajribasini qo'shni davlatlar bilan o'rtoqlashib borishini yo'lga qo'yildi. Unda ishtirok etgan Xalqaro fakultet dekani Nigoraxon Haydarova hamda institut ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i Nodirbek Komilovlar Qozog'iston respublikasining nufuzli universitetlarida bo'lib, ilmiy faoliyatlari bilan yaqindan tanishdilar, tajriba almashib qaytdilar. Shuningdek, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmiy faoliyatini yanada kengaytirish uchun yana bir muhim bosqichga qadam tashladi

Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va institut o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Prezident qarori bilan, Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali negizida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tashkil etilib, viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi institutning klinik bazasi etib belgilangan edi. Ana shu institutning klinik o'quv-laboratoriya binosi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

Bugungi kunda o'quv bazaga mamlakatimiz, qolaversa, O'rta Osiyoda yagona bo'lgan zamonaviy mikroskop olib kelindi. Salkam 500 mln. so'mga

xarid qilingan mikroskopning afzalligi shundan iboratki, undan birdaniga 10 nafar o'quvchi foydalanishi mumkin. Shuningdek, inson organizmidan tahlil uchun olingan namunalarni 1000 baravaridan 5000 baravarigacha kattalashtirib, mikroblar, bakteriyalarni, to'qimalardagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin.

Endilikda oliy hamshiralik ishi yo'nalishida, epidemiologiya, mikrobiologiya hamda klinik farmakologiya kafedralaridagi talabalar, o'qituvchi-professorlarimiz yangi zamonaviy jihozlar va asbob-uskunalar bilan o'quv mashg'ulotlarida, ilmiy tadqiqotlarda foydalanib, juda katta malakaga hamda amaliy ko'nikmaga ega bo'lishadi.

Yangi yil arafasida institut yana bir klinik o'quv bazaga ega bo'ldi. Respublikada birinchi bo'lib, shahardagi bo'sh turgan bino negizida 95 ming nafardan ziyod 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun shahar bolalar poliklinikasi tashkil etildi. Ushbu maskanda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining yangi "Horijiy" kafedrasida ish faoliyatini boshladi. Alohida kutubxona, zamonaviy jihozlar

bilan ta'minlangan darsxonalar va ingliz tilidagi tibbiy adabiyotlar bilan boyitilgan kutubxonada talabalar uchun barcha qulayliklar mavjud.

Bu yerda 150ga yaqin xorijlik talabalar tahsil olmoqda. Talabalarga 19 nafar o'z sohasining malakali mutaxassislari bo'lgan mahalliy professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda, besh nafar pokistonlik oliy tofali mutaxassislar bilim sirlarini o'rgatib kelmoqdalar.

Shuningdek, ushbu maskan talabalarga ta'lim berish bilan bir qatorda fan o'qituvchilarining kasb mahoratlarini oshirish hamda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy jarayon bilan tengma teng olib borish imkoniyatini taqdim etdi.

Institutning yutuqlardan yana biri — bu Belorussiya davlat politexnika instituti bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Belorussiya va O'zbekiston hamkorligida belgilangan grant loyihasini qo'lga kiritishidir. Endilikda ushbu loyiha doirasida inson yuragiga qo'yiladigan stent ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi hamda institutning o'zida qadoqlanib, ushbu oliygoh nomidan ishlab chiqariladi.

Davomi 3-betda



Hozirda AQSHning USMLE ta'lim dasturi bo'yicha 8 nafar yosh xodimlarimiz 165 nafar 1 kurs davolash ishi fakulteti talabalariga ingliz tilidan saboq berishmoqda. Ushbu dastur uch bosqichdan iborat va barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar AQSHda shifokor bo'lib ishlash litsenziyasini qo'lga kiritadilar.

Kelajagimiz faxrlari

«Xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlar kutayotganini hech qachon yodingizdan chiqarmang! Yurtning yuksak ishonchi va umidini to'la oqlash, unga munosib bo'lish dunyodagi eng ulug' baxtdir. Shunday sharaf barchangizga nasib etsin»

Shavkat Mirziyoyev



Nodirbek KOMILOV

YOSH OLIM PHD DISSERTASIYASINI MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILDI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Nodirbek Komilov «**Turkiston jadidlaridan Obidjon Mahmudovning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy faoliyati (1871-1936 yy.)**» mavzusida 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Quvonarlisi, o'tgan yilda 3 nafar yosh tadqiqotchilar fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, universitet ilmiy salohiyatini oshishida munosib hissa qo'shdilar.

E'tirof

INSTITUTIMIZ 1 YOSHDA

Ortga bir nazar

Davomi. Boshi 1-va 2-betlarda

Bugun tibbiyot sohasida malakali kadrlar yetkazishda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim muassasasida xalqaro darajadagi talabalar va shifokorlar bilan bemaol bellasha oladigan, zamonaviy tibbiyot bo'yicha eng so'nggi bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikada ilk marotaba Amerika ta'lim dasturiga asoslangan o'quv kurslari joriy etildi.

Dastur tadbiriq etilganiga 4 oy bo'ldi va shu munosabat bilan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida fundamental tibbiyot kursining Embriologiya yo'nalishi bo'yicha olimpiada tashkil etildi. Tanlov shartlariga ko'ra, talabalar barchasini a'lo darajada uddaladilar.

Talabalarining horij tajribasini o'zlashtirib borishi, tibbiy bilim-ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish va chet tilini mukammal tarzda o'zlashtirishiga ko'maklashish maqsadida, institutga chet elda, ingliz tilida chop etilgan 1300 dan ortiq tibbiyot sohasiga oid ilmiy adabiyotlar keltirildi. Shuningdek, talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi va kitob mutolaa qilishlari uchun zamonaviy jihozlangan, yorug' va shinam kutubxonasi tashkil etildi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'tgan o'quv yili davomida respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan fan olimpiadalarida ham qatnashib jamoaviy hamda yakka tartibda yuqori o'rinlarga sazovor bo'lmoqdalar. Bundan tashqari, ilmiy-amaliy konferentsiyalarda faol ishtirok etgan, talabalarimizning ilmiy maqolari bir qator chet el ilmiy jurnallarida chop etildi. Shu bilan birga institutimiz talabalarini madaniyat hamda IT sohasida ham ko'plab yutuqlarga



Bugungi kunda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va kelgusida malakali hamda o'z sohasiga ma'suliyat bilan yondashuvchi sifatli kadrlarni tayyorlash ustida astoydil ish olib bormoqdalar. Zero, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutiga yuklatilgan asosiy vazifa ham yurtimizda yetishmayotgan tibbiyot kadrlari o'rnini to'ldirish, shu bilan birga aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsata oladigan tajribali, yetuk mutaxassislarini tayyorlashdir.

erishdi. Institut talaba yoshlaridan tashkil topgan "Nastarin" talabalar teatr studiyasi qariyb 3 yildan buyon Respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan musobaqalarda oliy o'rinni egallab kelmoqdalar.

Ikki nafar talabamiz esa Respublika Innovatsiya vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkazilgan barcha loyihalarda eng yuqori o'rinlarni egallab, pul mukofotlari va qimmatbaho sovg'alar bilan

taqdirlandilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4-5 fevral kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti klinik kafedralarini tuman (shahar)larga biriktirish va rotatsiya usulida aholi salomatligi ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash, jumladan, sog'lom turmush tarzini keng joriy etish, ixtisoslashtirilgan tibbiy ko'rik va konsultasiyalarni doimiy ravishda o'tkazish belgilangandi. Shunga asoslanib viloyatdagi oilaviy poliklinikalar, qishloq shifokorlik punktlarida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti malakali professor-o'qituvchilari tomonidan belgilangan jadvalga muvofiq mahallabay tarzda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar o'tkazilib kelinmoqda.

Har oyda viloyatning chekka hududlarda institut professor shifokorlari hamda talabalar bilan birgalikda 3-4 guruhdagi bemorlar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkillanmoqda. Ko'riklarini sifatli o'tkazish uchun tegishli tibbiy asbob-uskunalar va laborator-dagnostik apparatlar to'liq shay holatga keltirilgan.

I.ABDUJABBOROV

Yangilik

TALABALARNING YANA BIR SEVIMLI MASKANI ISH BOSHLADI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti qoshida ilmiy diagnostika markazi ochildi.

Bu yerda xalq tabobati usullaridan foydalanish, turli infeksiyalarni aniqlash va tashxis qo'yish bilan birga Kovid-19 virusi bor-yo'qligini bilish imkoni mavjud. Oliygo'ning 2-son ichki kasalliklar kafedrasida negizida ochilgan ushbu markazda ilmiy yondoshuvlarning qo'llanilishiga e'tibor kuchaytirilgan.



Xalq tabobatini rivojlantirish, aholiga kam ziyon va ko'proq foyda beradigan davolash usullarini taklif etish salomatlik posbonlarining burchidir. Ayni burchni his qilgan holda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida talabalar uchun mashg'ulotlar nafaqat zamonaviy tibbiyot ilmi, balki xalq tabobati bilimlari asosida ham olib borilishi yo'lga qo'yildi. Buning uchun institutning 2-son ichki kasalliklar kafedrasida diagnostika markazi ish boshladi.

Bu yerda xalq tabobatining noyob usullari, xususan, zuluk bilan davolash, xijoma, igloterapiya, fizioterapiya kabi samarador usullardan foydalanish mumkin. Eng ahamiyatlisi, talaba va tadqiqotchilar ushbu markazda amaliy mashg'ulot va izlanishlar olib borishlari uchun ham sharoit bor. Buning uchun zarur jihozlar o'rnatilib, kerakli imkoniyatlar taxt etib qo'yildi. Chunki markaz faoliyatidan umidlar katta. Bu yer hademay talabalarimiz sevimli maskaniga, katta ilmiy markazga aylanadi. Qolaversa, klaster usulini yo'lga qo'yimoqchimiz, deysishmoqda mas'ullar.

M.DEHQONOVA

Suratda: institut o'qituvchi hamda talabalar ilmiy diagnostika markazida ish jarayoni bilan tanishishmoqda.



Oliygo'nda "Talaba-yoshlar va rektor uchrashuvi" tadbirlari ham an'ana tusiga kirdi. Unda hafta davomida instituti rektori Akmal Sidikov talabalar bilan yuzma-yuz uchrashib, o'quv jarayonlari, dars mashg'ulotlari, o'quvchilarni qiynab kelayotgan savol va muammolar haqida bevosita suhbatlar o'tkazib kelmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarining qiziqishlari, istaklari bilan yaqindan tanishish, yoshlarga ruhan va ma'nan yordam berish, eng asosiysi, o'zaro ochiq va samimiy muloqot o'rnatish orqali institutning reyting darajasini va ta'lim sifatini oshirishdir.

“SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA: FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI-NING MALAKALI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.

ENERGETIK ICHIMLIK LARNING FOYDASI HAM BORMI?

Barchamizga ma‘lumki, bugungi kunda energetik ichimliklar yoshu-qarini o‘ziga birdek jalb qilmoqda. Lekin bu ichimlikning sog‘ligimiz uchun qanchalik zararli ekanligini bilasizmi?

«Ovqatlanish va bolalar o‘smirlar gigiyenasi» kafedrasini xodimi shifokor, nutrisolog Kamila Sa‘dullaeva ayni shu xususiyatlar haqida ma‘lumot beradi.



Hozirgi davrda energetik ichimliklar inson organizmiga birinchidan nojo‘ya ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Tarkibida suv, kofein, shakar, taurin va turli xil vitaminlar mavjud. Energetik ichimliklarning ba‘zilari har bir porsiyada 100 mg gacha kofeinni o‘z ichiga oladi. U organizmdagi tonusni o‘zgartirish xususiyatiga ega, vitaminlar kompleksi o‘rnini bosa olmaydi. Demak, u quvvat bermaydi.

Ikkinchidan, yurak kasalliklari bilan xastalangan odamlarga energetik ichimliklar iste‘mol qilish qat‘iyan man etiladi. Chunki ular qon bosimini ko‘taradi, qondagi

shakar miqdorini normadan oshirib yuboradi. Uchinchidan quvvat beruvchi ichimliklar ta‘siri 3-5 soat orasida bo‘lib, keyinchalik esa organizmda quvvatsizlik, charchoq paydo bo‘ladi hamda asabiylashib, inson tushkunlikka tushib qolishi mumkin. Organizm ma‘lum vaqtdan so‘ng yana shu ichimlikni ichishni talab etadi.

Shifokor sifatida shuni maslahat berardimki, energetik ichimliklarni iloji boricha kamroq iste‘mol qilish lozim. Uning o‘rniga sharbatlar yoki shifobahsh damlamalar ichishni tavsiya etaman.

EHTIYOT BOLING, BOTULIZM!

«Ovqatlanish va bolalar o‘smirlar gigiyenasi» kafedrasini o‘qituvchisi Husniddin Xojimatov.

Ovqatdan zaharlanish yoki Botulizm. Uning oldini olish uchun uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste‘mol qilmaslik, ko‘cha-ko‘y va noqonuniy savdo tarmoqlaridan konserva mahsulotlarini sotib olmaslik muhim hisoblanadi.

— Kasallik qo‘zg‘atuvchisi (mikrob) tashqi muhitda, spora holatida tuproqda, suvda hattoki havoda ham uchrashi aniqlangan.

— Spora tashqi muhit orqali meva-sabzavot, ko‘katlar, go‘sht, baliq mahsulotlariga tushadi.

— Spora mikrobnings atrof-muhitga chidamliligini ta‘minlab beradi.

— U besh soat qaynatilsa ham nobud bo‘lmaydi.



— Botulizm tayoqchasi spora ko‘rinishida konservalanayotgan bankalarga tushganda kislorodsiz sharoit botulizm sporasi uchun qulay bo‘lib yashashi va ko‘payishiga asosiy muhit hisoblanadi.

— Bunda u o‘zining sporasidan chiqib, vegetativ shaklga o‘tadi va o‘zidan zahar (botulotoksin) ajratib chiqara boshlaydi.

— Botulotoksin konservalangan mahsulotning rangi, ta‘mi va tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishi mumkin.

— Botulotoksin faqat issiqlik ta‘sirida parchalanishi mumkin.

— Vegetativ shakldagi Botulizm qo‘zg‘atuvchilari kislotali, ishqorli va shakarli muhitda rivojlanmaydi.

KASALLIKNING KLINIK BELGILARI:

— ko‘ngli aynish;

BOLALARDA NEVROZLAR: SABABLARI, TURLARI

Ko‘pchilik ota-onalar farzandlarining asabiylashishidan shikoyat qilishadi. Bunga sabab nima?

Barchamizga ma‘lumki, yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida judayam ko‘p asabiylilik, tushkunlik holatlari ko‘p kuzatiladi. Bunga bir qancha sabablarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Avvalo, bolalarda nevrozni nevrologiyada ikki holatga bo‘lamiz. Ya‘ni, organik o‘zgarishlar va organik o‘zgarishsiz nevrozlar.

Ular qanday kuzatiladi?

Bolalarda nevroz tashxisini qo‘yish uchun bolalardagi kasallikni klinik laborator usulda tekshirib o‘tishimiz kerak. Tekshirishlar o‘tkazilib, hech qanday o‘zgarishlar topilmaganda bolaning klinikasiga qarab tashxis qo‘yish mumkin. Ota-onalar tomonidan shikoyatlar o‘rganiladi. Kattaroq bolalarda, tibbiyot tili bilan aytganda, tizimli nevroz ko‘p kuzatiladi. U organizmning umumiy ta‘sirinishi, ya‘ni bosh miya asab tizimining umumiy reaksiyasi bilan namoyon bo‘ladi. Buni balog‘at yoshiga yetgan bolalarning umuman gapga quloq solmasligi, asabiylashib, bir pastda yig‘lashi, jahli chiqib baqirib ketishi misolida ko‘rishimiz mumkin. Odatda bunaqa bolalarni tez-tez bosh og‘rig‘i bezovta qilib turadi. Bolalardagi nevroz holat farzandlarimizga ortiqcha e‘tibor berib ularga bosim o‘tkazish yoki e‘tiborsizliklardan kelib chiqishi mumkin.



Saidaziz Saidaliyev, shifokor, nevrolog

Shu o‘rinda nevrozning jismoniy kasalliklarga xos alomatlar ham borligini ta‘kidlab o‘tmoqchimiz:

tez-tez bosh yoki qorin og‘rig‘i bezovta qiladi;
bola doimiy yo‘taladi va bezovtalik hayajonlangan vaqtda kuchayadi;
hojatga yetib borishga ulgurmaydi (3 yoshdan oshganda), peshob tutib turolmaslik (enurez);

yaxshi yeb-ichmaslik;
bezovtalanib uxlash;
qo‘rquv va hokazolar.

— Nevroz qaysi davrlarda ko‘proq kuzatiladi?
— Bu o‘rinda bolaning rivojlanish davri bilan bog‘liq bir necha bosqichlarni aytib o‘tish mumkin. Uni biz kritik davr deymiz. Birinchisi – 2-3 yosh, ikkinchisi – 6-7 yosh, uchinchisi – 12-13 yosh, keyingisi – 16-17 yosh. Shu davrlarda bolalarning stressga ta‘sirchanligi yuqoriroq bo‘ladi va nevroz holatiga olib kelish xavfi ham ortadi.

«Nevroz» atamasi 1776 yili shotlandiyalik vrach Kellen tomonidan taklif qilingan. O‘sha davrda nevrozga quyidagicha ta‘rif berilgan: bu kasallikda tana harorati ko‘tarilmaydi, biron-bir a‘zo zararlanmaydi, tanada lat yegan joylar bo‘lmaydi, biroq bemorning asabi buzilgan bo‘ladi. Keyinchalik nevrozga turlicha ta‘riflar berildi va uning bir qancha tasniflari yaratildi.

— qayd qilish;

— qorin sohasida og‘riq;

— holsizlanish;

— qabziyat;

— ko‘zi xiralashishi;

— jismlar ko‘ziga juft ko‘rinishi, (diplopiya);

— og‘iz qurishi;

— yutish va gapirish qobiliyati pasayishi;

— bo‘yin va oyoq mushaklari zaiflashishi.

KASALLIKNING KECHISHI:

— og‘ir;

— yengil;

— bilinar bilinmas.

Kasallikning oldini olish o‘z qo‘lingizda ekanligini unutmang!

SMOG-

ZAMONAVIY JAMIYATNING JIDDIY EKOLOGIK MUAMMOSI

Dunyodagi barcha olimlarning ta'kidlashicha, har yili ifloslangan havo ta'siridan bir necha ming kishi halok bo'ladi.

Shifokorlar ma'lum toifadagi odamlarga tutun tez-tez uchraydigan joylarda qolishni maslahat bermaydilar. Bular: astmatiklar, allergiyaga chalinganlar, keksalar, yurak xastaligi bilan og'riqlar, chaqaloqlar.

SMOG nima?

«SMOG» atamasi birinchi marta 1900 yil boshida Londonda paydo bo'lgan va tez-tez shaharni to'sib qo'yadigan tutun va tuman kombinatsiyasini tasvirlash uchun ishlatilgan. Bir necha manbalarga ko'ra, bu atamani doktor Genri Antuan de Vuchs «Tuman va tutun» nomli maqolasida kiritgan, u 1905 yil iyulda sog'liqni saqlash yig'ilishida taqdim etgan. Muallif o'z maqolasida tutun (inglizcha — smoke) va tuman (inglizcha — fog) so'zlarini birlashtirib, smog atamasini qo'llaydi. Olim tutunning bir turini - tutun va oltingugurt dioksidining kombinatsiyasini, Angliyadagi uylar va korxonalarini isitish uchun ko'mirdan faol foydalanish natijasini tasvirlab berdi. Oddiy qilib aytganda smog bu — atmosferaga ko'tarilgan sanoat chiqindi moddalarining havo bilan birlashib, uni ifloslantirish jarayonidir (kimyogarlar buni fotokimyoviy reaksiya deb ataydi. Smog ifloslanish yuqori bo'lgan shaharlarda, sanoat markazlarida, yonilg'i va yoqilg'i mahsulotlari ko'p ishlatiluvchi joylarda yuzaga keladi. Smogning bir joyda to'planib qolishiga issiq havo sharoiti va shamol aylanishining kamligi sabab bo'ladi. Tog' va tepaliklar yon bag'irlaridagi hududlarda ko'pincha shamol yo'li to'silgani sabab ham iflos havo bir joyda to'planib qoladi. Havoning yuqori harorati va sokinlik kabi ob-havo sharoiti ham SMOGni yomonlashtirishi mumkin. Quyoshli kunlarda SMOG qalinlashadi, yerga cho'kadi va bir necha kun davom etishi mumkin. Shuning uchun, yoz kunlarida odamlar katta shaharlarni tark etishga harakat qilishadi. SMOG ifloslanish manbasidan uzoqda paydo bo'lgan holatlar mavjud, hamma narsa shundaki, shamol ifloslangan havoni uzoq masofalarga olib ketishi mumkin. Bugungi kunga qadar yirik smoglar Moskva, Sankt — Peterburg, Olmaota, Los — Anjelas, Mexiko, Tehron va London shaharlarida kuzatilgan. 1952-yil Londonda yuz bergan smog boshqalaridan quyuvligi, uzoq vaqt davom etgani va minglab o'limlarga sabab bo'lgani bilan ajralib turadi. Yuqoridagi omillar sabab London smogi tarixga "Buyuk smog" nomi bilan kirgan.

SMOG keng tarqalgan hududlar

SMOG Mexikodan Pekinga qadar dunyoning barcha yirik shaharlarida mavjud. AQShda tutun Kaliforniyaning ko'p qismida, San - Frantsiskodan San - Diyegoga va Vashingtonda, Kolumbiya janubida joylashgan. Rossiyada - Moskva, Yekaterinburg va Norilsk shaharlari hududida. Kislotli tuman Londondan Pekingga qadar ko'p shaharlarni qoplaydi.

SMOGning hosil bo'lish manbalari: avtomobil chiqindi

gazlari, elektr stantsiyalari va fabrikalardan chiqadigan gazlar, uy — ro'zg'or buyumlari (lak, bo'yoq, kimyoviy erituvchilar) tabiiy va torfli botqoq yong'inlari, ko'mir yoqish, chekish kabilar kiradi. Katta shaharlarda SMOGning paydo bo'lishining asosiy sababi avtomobil egzoz gazlaridir.

SMOG ni aniqlash

Aslida, tutun — bu ifloslanishning ko'rinadigan shakli va agar sizning shahringizda SMOG paydo bo'lsa, buni ko'rasiz. Bu zich tumanga o'xshaydi. Agar quyoshli kunda ufqqa qarasangiz, uni aniqlash oson. Bundan tashqari, aksariyat shaharlar havoni ifloslantiruvchi moddalar kontsentratsiyasini o'lchaydilar va jamoatchilik hisobotlarini taqdim etadilar.

Smog turlari:

Smogning kamida to'rtta turi ma'lum: oltingugurtli, fotokimyoviy, vulqonli va muzli.

London uslubidagi nam smog

Bu turga oltingugurtli ham deyiladi. Oltingugurtli smog. Bu kislotali yomg'ir va tuman shaklida bo'lishi mumkin.

Londonda sodir bo'lgan "Buyuk smog" — shahar aholisi isitish uchun faol ishlatgan. Ko'mir tarkibida oltingugurt bor edi, shuning uchun havoda oltingugurt dioksidi ko'paydi. Shuningdek, avtomobil chiqindilari va ko'mir yoqadigan elektr stantsiyalarining ifloslanishi oshdi. Shaharda osilgan «buyuk tutun» shu qadar qalin ediki, u mashinalarning harakatiga halaqit berdi. Jamoat transporti va tez yordam mashinasi ishlamay qoldi. Tuman xonaga ham kirib bordi. Londonda ko'plab madaniy tadbirlar va film namoyishlari bekor qilindi: zich parda tufayli sahna va ekran ko'rinmay qoldi. Natijada paydo bo'lgan shahar tutuni 12 mingdan ortiq odamning hayotiga zomin bo'ldi. 100 mingdan ortiq kishi nafas yo'llari kasalliklari bilan kasallangan.

Los-Anjeles tipidagi fotokimyoviy (quruq) tutun

Fotokimyoviy tutun — bu quruq tuman, quyoshning ultrabinafsha nuri, chiqindi ozon, avtomobil chiqindilari, azot oksidi, uglevodorodlar, uchuvchi organik birikmalardan chiqadigan gazlar, fabrikalar va elektr stantsiyalaridan chiqadigan chiqindilardan paydo bo'ladigan aerosol. Natijada, smog och jigarrang rangga ega. Londondan farqli o'laroq, bu tur Los — Anjeles deb ataladi. Axir, farishtalar shahrida millionlab avtomobillar kuniga ming tonnadan ortiq azot oksidi chiqaradi.

Vulkan tutuni.

Vulkan tutuni - vulqon otilishi natijasida atmosferada paydo bo'lgan tur. Havodan zararli gazlar va zarralar chiqariladi va quyosh nuri va kislorod bilan reaksiyaga kirishadi. Vulkan tutunidagi ba'zi kimyoviy moddalar odamlarga, hayvonlarga va o'simliklarga zarar yetkazishi mumkin. Odamlar nafas olish, shilliq qavatning tinalishi xususiyati va tomoq og'rig'iga duch kelishi mumkin. Bu tur masalan, Gavayi orollari, faol vulqonlar bo'lgan mamlakatlarga xosdir.

Muzli tutun.

Bu tur tabiatda boshqalarga qaraganda kamroq uchraydi.

Muzli tutunning paydo bo'lishi uchun qulay bo'lgan ob-havo sharoiti quyidagicha: juda past havo harorati, shamol yetishmasligi, yuqori namlik. Bunday ob-havoda mayda muz kristallari paydo bo'lganda, barcha ifloslantiruvchi moddalar ularga yopishib olganday tuyuladi. Muz kristallari va zararli moddalar zarralari birikmasi qalin tuman hosil qiladi, bu qon aylanishiga va nafas olish organlariga salbiy ta'sir qiladi.

Smogning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'siri.

Smog, o'rmon yong'inlari natijasida, uglerod oksidi bilan bir qatorda, PM2.5 va PM10 o'ta nozik zarrachalarining ko'pligi tufayli xavfli. Bu zarralar shunchalik mayda va yengilki, ular sirtidagi tortishish kuchi ta'sirida joylashmaydilar, balki havoda suzadilar, tirik mavjudotlar tomonidan nafas oladilar, to'siqsiz o'pkaga yetib boradilar va qonga kiradilar. Uglerod oksidi (CO) ning yuqori kontsentratsiyasi tufayli u qon va o'pkada kislorod almashinuvini bloklaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, uzoq vaqt davomida xavfli zarrachalarga ta'sir qilish nafas olish,

yurak-qon tomir kasalliklari va o'pka saratoni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Uning inson salomatligiga ta'siri yengil ko'z va nazofarenksning tirnashidan o'pka saratoni kabi o'limga olib keladigan kasalliklarga o'zgaradi. Bu oqibatlarining kuchi tumanning davomiyligiga, uning zichligiga, kontsentratsiyasiga va tarkibidagi moddalarning xavf darajasiga bog'liq.

SHuningdek, smog tarkibidagi (azot dioksidi, nitrat, fluor va boshqalar) zararli gazlar nafas olish qiyinlashishi, astma, surunkali bronxit, o'pka emfizemasi, yo'tal, uyqusizlik va bosh og'rig'ini keltirib chiqaradi. Tutunli tuman paytida ko'z va burun shilliq qavatlarini yallig'lanishi, immunitet pasayish holatlari ham kuzatiladi. Biroq, tutunning ta'siri nafaqat inson salomatligiga ta'sir qiladi, olimlarning aytishicha, bu o'simlik va hayvonlarga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, tuman binolar va transport vositalarining korroziyalanishiga olib kelishi mumkin. Osmondagi ozon ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: u o'simliklarning o'sishiga to'siqlik qiladi, ekinlar va o'rmonlarga zarar yetkazadi.

To'rt guruh odamlar, ayniqsa, tutunga juda sezgir:

Bolalar. Ochiq havoda ko'p vaqt o'tkazadigan faol bolalarga tutun va tumanning korroziyalari aralashmasidan ta'sirlanish xavfi katta. Shuningdek, Londonda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tutundan omon qolgan chaqaloqlar astma va boshqa nafas yo'llari kasalliklariga chalinadi.

Kattalar ko'p vaqtlarini ochiq havoda o'tkazadilar. (xususan yirik sanoatlashgan hududlarda). Har qanday yoshdagi sog'lom kattalar ko'p yuradigan, jismoniy mashqlar qiladigan yoki tashqarida ishlayotgan bo'lsa, tutundan sog'liq muammolariga ko'proq moyil hisoblanadi.

Nafas olish muammolari bo'lgan odamlar. Astma yoki boshqa surunkali nafas olish kasalliklari bo'lgan odamlar ifloslantiruvchi moddalar ta'siriga nisbatan sezgir va himoyasizdirlar. Odatda, ularga nojo'ya ta'sirlar boshqalarga qaraganda erta va past darajada ta'sir qila boshlaydilar.

Yuqori sezuvchanligi bo'lgan odamlar. Biz hammamiz shaxsmiz, shuning uchun ba'zi sog'lom odamlar boshqalardan ko'ra ozon va tutun tarkibidagi boshqa gazlar va zarrachalarga nisbatan sezgir bo'lib, sog'likka ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Smog bilan kurashish va oldini olish.

Smog ko'plab mamlakatlarda eng muhimlaridan biridir, shuning uchun hukumatlar yomon tumanni kuzatish va kamaytirish uchun qonunlar va monitoring tizimlarini yaratadilar. Ba'zi qonunlar o'simlik atmosferaga qanday kimyoviy moddalarni chiqarishi mumkinligi haqidagi cheklovlarni o'z ichiga oladi, ba'zilar esa havodagi moddalarni belgilaydi.

Har kim tutunning oldini olishda o'z hissasini qo'shishi mumkin:

Iloji boricha piyoda, velosiped yoki jamoat transportidan foydalanish kerak.

Bundan tashqari, mashinaga ertalab yoki kechasi, hali tashqarida salqin bo'lsa, yonilg'i quyish yaxshiroqdir: bu benzin bug'larining qizib ketishiga va ozon hosil bo'lishiga to'siqlik qiladi.

Agar siz ochiq havoda bo'lishni istasangiz, avtomobil yo'llari va fabrikalar kabi ifloslanishning asosiy manbalari bo'lgan joylardan uzoqroq turing.

O'zingizni va oilangizni ifloslantiruvchi moddalar ta'siridan himoya qilish uchun havoni filtrlaydigan iqlim texnologiyasiga e'tibor bering. Masalan, u allaqachon tozalangan havoni ko'chadan xonaga yetkazib beradi va xonadagi havodan zararli moddalar va mikroorganizmlarni yo'q qiladi.

Yuqori organik brikmalar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlardan (bo'yoqlar, erituvchilar va boshqalar) saqlanang.

Gaz uskunalarini o'rniga elektr asboblaridan foydalanishingiz maqsadga muvofiqdir.

O'g' iloy ABDULLAYEVA,

«Kommunal va mehnat gigiyenasi» assistenti.



Mutaxassis minbari



Tungi soat chamasi 2:00 ota va ona xonadonga yangi kelgan mehmon chinqirig`idan uyg`ondi. Ular farzandini navbatma navbat ovutishga kirishishdi, biroq bola uzoq vaqt tinchlanmadi. Bu holat sizga tanishmi? Bu oddiygina ichaklar sanchig`i bo`lishi mumkin.



Bolalarda ichaklar sanchig`i

Ichak kolikasi — kuniga kamida 3 soat davom etadigan, haftada kamida 3 marta sodir bo`ladigan bolaning og`riqli yig`lash va bezovtalik epizodlari hisoblanadi. Odatda ular bola hayotining 2-3 haftasida boshlanib, ikkinchi oyda avjiga chiqadi, 3-4 oydan keyin asta-sekin yo`qoladi. Ichak kolikasi uchun eng tipik vaqt kechki soatlardir. Yig`lash epizodlari ayni vaqtdagi tashqi ta`sirlarsiz to`satdan boshlanadi va o`tib ketishi mumkin.

Turli manbalarga ko`ra, ichak kolikasi chaqaloqlarda uchrashi 20% dan 70% gacha bo`lib, uzoq vaqt davomida o`rganishlarga qaramay, etiologiyasi to`liq aniq emas.

Ichak kolikasi yuzning qizarishi bilan kechadigan o`tkir og`riqli qichqiriq bilan tavsiflanadi, bola majburiy pozitsiyani egallaydi, oyoqlarini qorniga yaqinlashtirib, gaz va axlatning kelishi bilan bog`liq qiyinchiliklar vujudga kela boshlaydi.

Bolaning ishtahasi buzilmasa ham, normal o`sib rivojlanasa ham ichak kolikasi epizodlari vaqtida ota-onalarni jiddiy tashvishga solaveradi.

So`nggi yillarda kolikaning paydo bo`lishida ichak mikroflorasi roliga katta e`tibor qaratilmoqda. Shunday qilib, mana

shunday funksional buzilishlari bo`lgan bolalarda ichak mikroflorasi tarkibida o`zgarishlar aniqlangan. Bu shartli patogen mikroorganizmlar sonining ko`payishi va himoya florasi bo`lgan — bifidobakteriyalar va ayniqsa, laktobakteriyalar sonining pasayishi bilan tavsiflanadi. Og`ir ichak sanchig`i bo`lgan bolalarda yallig`lanish oqsili-kalprotektin darajasi ko`pincha oshadi. Disbakterioz uchun najasni tahlil qilish ichak kolikasining sabablarini tushunishga yordam beradi.

Profilaktikasi

Ichaklar sanchig`i bilan nafaqat bola yig`layotgan paytda kurashish kerak balki, pediater ko`rigidan o`tib quyidagi kabi maslahat va tavsiyalarga ega bo`lish zarur:

Onaning ovqatlanishi va dietasini to`g`ri belgilash.

Ichaklarda gaz hosil bo`lishini ko`paytiradigan ovqatlardan saqlanish kerak, chunki ularning tarkibiy qismlari ona sutiga o`tishi mumkin. Bu ovqatlarga karam, brokkoli, turp, uzum, qo`ziqorin, loviya, sut va issiq ziravorlar kiradi.

Emizish qoidalariga rioya qilish

Sanchiq ko`krak suti bilan oziqlanadigan chaqaloqlarda ko`proq bo`lsada, ko`krak sutidan butunlay voz kechish kerak emas. Ko`krakka noto`g`ri biriktirilishi, noto`g`ri emizish chaqaloqning oshqozoniga ortiqcha havo kirishiga (aerofagiya) sabab bo`ladi. Bu esa ichakka kirib borgach, ichak devorlarini cho`zishi va og`riqni keltirib chiqarishi mumkin. Emizish bo`yicha maslahat to`g`ri ovqatlanish texnikasini o`rganishga yordam beradi.

Emizishdan so`ng, chaqaloqni «tik» holatda kamida 5 daqiqa ushlab turish kerak, shunda havo oshqozondan chiqib ketadi. Kekirishini kuting, shundan keyingina siz chaqaloqni joyiga qo`yishingiz mumkin.



Agar bola sun`iy ovqatlanishda bo`lsa

Agarda chaqaloq shishadan ovqatlanadigan bo`lsa ko`rsatmalarga rioya qilgan holda bolaga mos so`rg`ich tanlanishi va ovqatlanirilayotganda shishadan havoni so`rib olinishiga yo`l qo`ymasligingiz kerak.

Ko`p hollarda kolika chaqaloqning sun`iy aralashmalar formulasiga bo`lgan munosabati bo`lishi mumkin. Ya`ni aynan shu smes sababli kolika rivojlanayotgan bo`lishi mumkin. Bunday holda siz turli xil variantlarni, masalan, laktozasiz yoki prebiyotik aralashmali turlarini sinab ko`rishingiz va eng mosini tanlashingiz kerak. Bunda sizga pediater maslahati kerak bo`ladi.

Bolani tez-tez qo`lingizga olib quchoqlang, o`z taftingiz bilan qorin sohasini isitib turing. Bu o`rinda slingdan foydalanishingiz mumkin. Muntazam ravishda gimnastika, ohista massaj va chaqaloqni kuniga bir necha marotaba qorinchalab yotqizish yaxshi foyda beradi.

NEYROSONOGRAFIYA O`ZI NIMA?



Neyrosonografiya bu chaqaloq tug`ilishidan to 1 yoshgacha bolalarning bosh miyasini boshdagi tabiiy tirqishlar (liqqildoqlar) orqali ultratovush yordamida tekshirishga aytiladi. Ko`p tibbiyot xodimlari tekshiruvni amalga oshirish uchun maxsus uskuna kerak bo`ladi deb o`ylashadi, aslida tekshiruv oddiy UTT apparatida o`tkaziladi.

Yangi tug`ilgan chaqaloqlar uchun neyrosonografiya mutlaqo zararsiz va og`riqsiz usul bo`lib, tekshiruv ucnun uzoq vaqt talab qilinmaydi.

Neyrosonografiya o`tkazishga ko`rsatmalar

- To`g`ruq travmalarida
- Chala tugilishda
- Tug`ma bosh sohasi anomaliyalarida
- Cho`zilgan homiladorlikdan so`ng
- Kesar kesish yo`li bilan o`tkazilgan tug`ruqlarda
- Homila ichi infeksiyasi bilan tug`ilganda
- Tug`ma gidro va mikrocefaliyani tashxislashda
- Talvasa sindromida bosh miya morfologik o`zgarishlari oxtarilganda

- Profilaktika maqsadida, bolani emlashlarga tayyorlashda
- Irsiy kasalliklarda
- Meningo-ensefalitlarda.

Bolalar neyrosonografiyani necha yoshgacha o`tkazadi?

Liqqildoqlar to`liq berilmaguncha. Odatda bu 12 oyga yaqin bo`ladi. Bunda ultratovush suyaklardan o`tishi qiyinlashadi.

Hozirda zamonaviy UTT apparatlarining dopler rejimlarini qo`llab hatto chaqaloq miyasida qon aylanishining o`zgarishlarini aniqlash mumkin.



Sahifani Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pediatriya kafedrasida assistenti Shohruh AHMADALIEV tayyorladi.

XALQARO ALOQALAR MIQYOSI KENGAYMOQDA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti bugungi kunda Hindiston, Pokiston, Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi kabi rivojlangan davlatlarning xalqaro oliygohlari bilan ta'lim sohasida o'zaro hamkorlik olib bormoqda.



MORINOMIYA TIBBIYOT UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Yaponiyaning Morinomiya tibbiyot universitetlari o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Muloqot mobaynida har ikkala tibbiyot muassalari o'rtasida kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan hamkorlik faoliyati haqida qizg'in suhbat olib borildi. Shuningdek, Morinomiya tibbiyot universiteti rektori yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari bilan tibbiyot sohasida hamkorlik ishlarini olib borishga qiziqayotganligini alohida ta'kidladi va mamnuniyat bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolashini qo'llab-quvvatladi.

Mazkur muloqotni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad Morinomiya tibbiyot universiteti bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, bu orqali esa professor-o'qituvchilarning malakasi va tajribasini oshirish hamda talabalarning bilim salohiyatini yuksaltirishga erishishdir.

Ushbu muloqot O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasi hamkorligida tashkil etildi.


Morinomiya tibbiyot universiteti 1973-yilda tashkil etilgan xususiy universitet bo'lib Kansay mintaqasining eng yirik tibbiy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi.



Hozirda Morinomiya universiteti 667 ta tibbiyot muassasasi bilan malaka oshirish va tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Ya'ni mazkur universitetning xalqaro miqyosda tutgan o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirishda yo'lga qo'yilayotgan keng islohotlar, xususan, xalqaro miqyosdagi hamkorlik aloqalarini izchillik bilan yo'lga qo'yilishi ta'lim sohasini jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishida muhim omil sifatida qo'l keladi.

Tibbiyot sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan biri hisoblangan Yaponiya mamlakati bilan ayni sohada hamkorlik ishlarini amalga oshirish kelgusida yurtimizda malakali va tajribali shifokor kadrlar salmog'ini oshiradi.



O'QITUVCHI - TALABALAR TURKIYADA AMALIYOT O'TASHI MUMKIN

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida xalqaro aloqalarni kengaytirish maqsadida anjuman bo'lib o'tdi. Onlayn tarzda o'tkazilgan tadbirda Turkiya hamkorlik muvofiqlashtiruvchi agentligi orqali Turkiyadagi Top-1000 talikka kiruvchi nufuzli universitetlar va Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish, kelgusida ilmiy-amaliy faoliyatlarni birgalikda olib borish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik tibbiyot sohasi bo'y ko'rsatayotgan tashabbuslar bugun yangi bosqichda. Videoanjumanda dastavval institut rektori A. Sidikov oliygohdagi ta'lim tizimi, kafedra, fakultetlarining erishgan yutuqlari, xodimlarning malakasi, bilim va tajriba rivojiga sezilarli hissa qo'shayotgan xalqaro hamkorlik aloqalariga atroflicha to'xtalib o'tdi.

Oliy ta'lim muassasasining har bir fakul'tetida tibbiyot va sog'liqni saqlash bilan bog'liq ko'plab yo'nalishlarning mavjudligi 150 ga yaqin horijlik talabalar uchun tashkil etilgan dasturlarga e'tibor qaratildi. Bunda institut Turkiyaning Koch, Anqara, Istanbul hamda Istanbul texnika universitetlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, memorandum imzolash taklifini bildirdi. Onlayn anjuman shunisi bilan e'tiborli bo'ldiki, bunda yuqorida nomi tilga olingan oliygohlar va institutimiz o'rtasida hamkorlikda qo'shma dasturlar tashkil etish, shu asnodda o'qituvchi va talabalarning akademik almanishuvini amalga oshirish, o'zaro tajribalar bilan o'rtoqlashish masalasi ko'zda tutildi. Bunda professor o'qituvchilar talabalar ishtirokidagi delegasiyaning Turkiyada amaliyot o'tashi yoki hamkorlarning Farg'onaga kelishi borasida foydali talab va takliflar o'rta tashlandi.

KOCH UNIVERSITETI (KU)



Turkiyadagi xususiy notijorat oliy ta'lim muassasasidir. KU 1993 yilda tashkil etilgan. Universitet kampusi Istanbul shahrida joylashgan.

Universitet reytingi. Koch universiteti Turkiyadagi eng yaxshi universitetlar o'ntaligiga kiradi.

Eng yosh universitetlaridan biri bo'lishiga qaramay, Turkiyadagi reytingda an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

ISTANBUL TEXNIKA UNIVERSITETI



U Turkiya universiteti bo'lib, dunyodagi uchinchi eng qadimgi muhandislik universitetidir. Universitetda 39 ta bakalavriat va 144 ta magistratura dasturlari, 13 ta kollej, 346 ta laboratoriya va 12 ta ilmiy markazlar mavjud.



CHUNSHIN TIBBIYOT KOLLEJI BILAN MEMORANDUM IMZOLASHGA KELISHILDI

Global ekologik muammolar, ko'payib borayotgan kasalliklar nafaqat zamonaviy tibbiyotni, balki xalq tabobatini ham birgalikda rivojlantirish masalasini qo'yimoqda. Sir emas, Abu Ali ibn Sino butun insoniyat hayoti uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni, qimmatli manbaalarni yozib, o'z amaliyotida qo'llab, ularni isboti bilan avlodlarga qoldirgan. Xalqaro miqyosda esa uning ilmiy merosi hamon o'rganilmoqda. Qolaversa, xalq tabobati Xitoyda ham madaniyat darajasiga ko'tarilgan. O'zbek va Xitoy xalq tabobatini uyg'unlikda rivojlantirish esa yangi bir yo'nalishga asos bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rahbariyati Xitoyning Chunsin tibbiyot kolleji bilan memorandum imzolash bo'yicha muzokaralar olib bordi.

Xitoylik hamkorlar Chunsin tibbiyot kollejida bugungi kunda 34 ta yo'nalish bo'yicha talabalar tahsil olishi, Farg'ona va Xitoy o'rtasidagi ushbu hamkorlikning yo'lga qo'yilishi xalq tabobati rivojida o'ziga xos burilish bo'lishini e'tirof etdilar. Onlayn muloqot davomida Prezident qarori bilan O'zbekistonda 2020-2024 yillarda Xalq tabobatini rivojlantirish muddati etib belgilab berilganligi va bu borada katta qadamlar tashlanayotgani aytili.

Shuningdek, har ikki oliygoh o'rtasida talabalar va professor-o'qituvchilar almashuvini yo'lga qo'yish, xalq tabobati, davolash ishi, farmasevtika yo'nalishlari o'rtasidagi hamkorlik asosida ilmiy tadqiqotlarni olib borish, malaka hamda tajribalarni o'rtoqlashish masalalari ko'tarildi. Muloqot yakunida ushbu yo'nalishlarda hamkorlik memorandumini imzolashga kelishildi.

Bilasizmi?

Chunsin tibbiyot universiteti (CQMU), ilgari Chunsin tibbiyot kolleji, 1956 yilda Shanxay birinchi tibbiyot kollejini qisman ko'chirish orqali tashkil etilgan bo'lib, hozirgi Fudan universitetining Shanxay tibbiyot kollejidir. 60 yildan ortiq rivojlanishdan so'ng, CQMU Ta'lim vazirligi, Milliy sog'liqni saqlash komissiyasi va Chunsin shahar hukumati tomonidan birgalikda qo'llab-quvvatlanadigan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tibbiyot universitetiga aylandi.



CQMU bakalavriatdan aspiranturagacha bo'lgan to'liq dasturlarni taqdim etadi. Doktorlikdan keyingi tadqiqotlar ham mavjud.

M.DEHQONOVA.

O'QUV-SEMINARLAR TASHKIL ETILDI

1 Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida koronavirus bilan kasallangan bemorlarni diagnostikasi va davolash bo'yicha yangi tahrirdagi klinik tavsiyalarga o'qitish yuzasidan o'quv-seminar bo'lib o'tdi.

Ushbu o'quvlarga hududlardagi tibbiyot muassasalaridan 200 dan ortiq terapevt, pediatr, anesteziolog-revmatolog, endokrinolog, akusher-ginekolog va oilaviy shifokorlar jalb etildi.

— Maqsad koronavirus infeksiyasini yangi turlari bilan tanishtirish, — deydi kafedra mudiri Rasuljon Sheramatov. — 36 soatlik kurs davomida bu kasallik asosan aholi orasida emlanmaganlarda ko'p uchrayotgani, undan saqlanish, asosiy diagnostik xususiyatlari, davolash, reabilitatsiya kabi foydali tavsiya va maslahatlar bilan tanishtiriladi.

2 Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida Xalqaro fakultet hamda Rossiya Federatsiyasi Moskva shahrida joylashgan Federal Reanimatsiya va reabilitologiya ilmiy klinik markazi hamkorligida ikki kunlik vebinar bo'lib o'tdi.

Vebinar "Neyroproteksiyaning endogen mexanizmlari" va "Yurak patologiyasining shakllanishining patofiziologik jihatlarini" mavzularida ikki kun davom etdi. O'tkazilgan vebinarida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Xirurgiya kafedrasini professor-o'qituvchilari bilan bir qatorda institutning barcha klinik ordinatorlari ham ishtirok etdilar.

3 Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining axborot texnologiyalari markazi tomonidan, institutda faoliyat yuritayotgan tyutorlar uchun 26-27 yanvar kunlari HEMIS axborot tizimida shaxsiy sahifasini yaratish, axborot tizimidan mustaqil foydalanishni o'zlashtirish uchun seminar-trening tashkil etildi.

Seminar-treningda tyutorlar HEMIS dasturida qay tarzda ish olib borish, davomat yuritish, talabalar haqidagi ma'lumotlarni kiritish, jurnal, hisobotlarni olish va tahlil qilishni elektron boshqarishni o'rganishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollar bilan axborot texnologiyalari markazi xodimiga murojaat qilishdi. Har bir tyutor o'zi uchun ochilgan login, parollardan qay tarzda foydalanish kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'ldi.



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot xizmati

IBN SINO O'GITLARI

SUV VA SALOMATLIK

Buyuk mutafakkir olim Ibn Sino o'zining adabiy ijodida nafaqat lirik she'rlar, balki tabobatni yaxshi o'rgangandan so'ng turli dostonlarni yaratib, xalq o'rtasida tib ilmini keng targ'ib qildi. Ibn Sinoning "Tibbiy dostonlar" asarida ayniqsa aholi salomatligini saqlash borasida ob-havo sharoitlari va mijozga qarab ovqat tanovvul qilish to'g'risida bir qator ijobiy fikrlar keltirilgan.

Ibn Sino o'z ijodida nazm bilan qilgan bir necha urjuzalar-dostonlar ya'ni tabobatga oid 8 ta doston yaratgan. Buyuk mutafakkir olim o'z dostonlarida turli kasalliklarni davolashdan ko'ra uning oldini olish afzalliklari to'g'risidagi fikrlarini ilgari surgan.

1. Sog'liqni saqlash-gigiena haqida urjuza;
2. Yilning to'rt fasllari haqida urjuza;
3. Anatomiya haqida urjuza;
4. Gippokrat vasiyatlar haqida urjuza;
5. Tajribadan o'tgan amaliyotlar haqida urjuza;
6. Tibbiy nasihatlar haqida urjuza;
7. Aloqa haqida urjuza;
8. Tabobat haqida urjuza;

Nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifani Ibn Sino katta mahorat bilan amalga oshirdiki, uning «Tib Qonunlari» asarining jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeyi bunga yorqin guvohlik beradi. Ibn Sino ta'limotidan kelib chiqib hozirda Respublikamizda aholini sifatli suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ichimlik suvi sifatiga qo'yiladigan gigienik talablar "Ichimlik suvi" Davlat standartini amaliyotga tadbiiq qilingan. Mazkur Davlat standartini ichimlik suvi maqsadlari uchun aholiga yuborilayotgan suvning tarkibiga inson salomatligi uchun ahamiyatli bo'lgan, gigienik nuqtai nazaridan asoslangan organoleptik

ko'rsatkichlar, bakteriologik ko'rsatkichlar, kimyoviy tarkibi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha gigienik talab qo'yilgan.

Ibn Sino tibbiy dostonining ikkinchi "Amaliy qism uning bo'linishi" qismida ichimliklar haqida quyidagi misralarni keltirgan:

**Tashnalikka oz sovuq suv bo'lgay davo,
Turgan, iliq suv ko'p ichmak bo'lmas shifo.
Ichimlikka muzni ko'p ishlatgan yomon,
Chunki andin asablaring ko'rgay ziyon.**

Ushbu misralarning ma'nosidan ko'rinib turibdiki, Ibn Sino o'z davrida ham insonlar iste'mol qiladigan ichimlik suvining sifatiga qo'yiladigan talablarni keltirib o'tgan, ya'ni iste'mol qilinayotgan ichimlik suvini harorati me'yordan yuqori bo'lsa (+250S) inson organizmida ko'ngil aynish va qusish reflekslarini kuchaytiradi yoki suvning harorati past bo'lsa nerv tolalarini shamollashiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning eng mashhur va durdona asarlaridan biri «Kitob al-Qonun fit-tib» (Tib Qonunlari) kitobi hisoblanadi. Bu asar o'z zamonasidagi tabobat ilmlarining mufassal qomusi sifatida inson sog'ligi va kasalliklarga oid bo'lgan barcha muammolarni mantiqiy tartibda to'la mujassam etgan. Buyuk olimning qilgan xizmatlarini, jahonning ilm ahli e'zozlaydi.

**Sohibaxon SAIDOVA,
"Kommunal va mehnat gigiyena"
kafedrasini assistenti.**



Bu qiziq!

«Tib Qonunlari» kitobining asl arabcha matni birinchi marta 1593 yili Rimda, keyinchalik hozirgi Qohira (1873, 1877, 1879), Tehron (1889), Laknav (1906) va Loxur (1906) shaharlarida chop etildi. Ispaniyaning Toledo shahrida 1130 yilda tarjimonlar kollegiyasi tashkil qilinadi va Kremonalik Gevard (1114 - 1187 y.) «Tib Qonunlari» ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi. Shundan boshlab «Tib Qonunlari» kitobi Yevropa vrachlari qo'lidagi asosiy qo'llanmaga aylanadi va universitetlarda tibbiyot fani shu asar bo'yicha o'qitilgan.

JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6 sentabr 2021 yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOROV
Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
BOSMAXONA MANZILI:
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mirobod ko'chasi, 41/2-uy.
Bosmaxonaga 28. 02. 2022 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17 00
Buyurtma: Adadi: 1000